

## TOHIR MALIKNING ETALON TANLASHDAGI USTALIGI

**Turakulova Umidaxon Anvarovna,**

*University of Bussines and Science oliy ta'lim muassasasi*

*Til va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi*

*Gmail: [standoffabu202@gmail.com](mailto:standoffabu202@gmail.com)*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17954675>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Tohir Malikning etalon tanlash mahorati haqida so'z boradi, adibning etalonlariga xos xususiyatlar, ayniqsa, etalonlarga qarashli sifatlovchi aniqlovchi va qaratqichli aniqlovchilarning qo'llanganligi haqida misollar tahlilga tortilgan. Maqolada yozuvchining etalon tanlashdagi mahorati bitta etalonni turli semalar uchun qo'llagani haqida misollar bilan sharhlangan.

**Kalit so'zlar:** o'xshatishlar, etalon, sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchi bilan kengaygan birikmali etalonlar, sodda etalonlar.

**Abstract.** This article examines Tohir Malik's skill in selecting literary exemplars (etalons). It analyzes the distinctive features of the exemplars used by the author, particularly the employment of composite exemplars expanded with descriptive and genitive modifiers. The study also highlights the writer's mastery in using a single exemplar to express different semantic nuances.

**Keywords:** similes, etalon, descriptive modifiers, genitive modifiers, composite exemplars, simple exemplars.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается мастерство Тохира Малика в выборе литературных эталонов. Анализируются характерные особенности эталонов, используемых писателем, в частности применение расширенных составных эталонов с качественными и притяжательными определениями, что иллюстрируется соответствующими примерами. В работе также показано умение автора использовать один и тот же эталон для выражения различных семантических оттенков, что подтверждается текстовым материалом.

**Ключевые слова:** сравнения, эталон, качественные определения, притяжательные определения, составные эталоны, простые эталоны.

**Kirish.** Insoniyatni olamni anglashida o'xshatish-qiyoslashning o'rni juda kattadir. O'xshatish esa kuzatish, taqqoslash kabi jarayonlar bilan uzviy bog'liq. Duch kelgan narsa va hodisalardan o'xshatish izlash ham o'rinsiz. O'xshatish shunday hodisaki, biror predmet, voqea, shaxs yoki holat kuzatilganida boshqa bir narsani beixtiyor yodga soladi. Ana shu holat o'xshatishning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Masalan, she'riyatda labni g'unchaga, qoshni kamonga, yuzni oyga qiyoslash keng tarqalgan, chunki oy, quyosh, kamon kabi predmetlarni tanish uchun alohida bilim talab qilinmaydi. Shuning uchun ham ilk o'xshatish namunalari shu kabilar bo'lgan bo'lsa, ajab emas, hatto shu darajada ko'p qo'llanganidan paremiologik birliklar singari turg'unlashish darajasiga yetgan. O'ylab qaralsa, bu o'xshatishlar ham o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Labni ta'riflashdan avval g'unchani, qoshni ta'riflashdan avval kamonni, yuzni ta'riflashdan avval oyni yaxshiroq tanish ilmiga ega bo'lingan. Bugungi kun adabiyotida ham rang-barang o'xshatishlar qo'llanmoqdaki, bu hol o'quvchining tasavvurini oshirib, zavqlantiradi, o'z o'rnida yozuvchi yoki shoirning mahoratini belgilaydi.

*Etalon* soʻzi keng maʼnoda qoʻllanganda barcha soha va tarmoqlardagi oʻlchov maʼnosini ifodalaydi. Muayyan narsaga nisbatan ideal sifat yoki xatti-harakatni bildirishi ham mumkin. Oʻxshatishlarning hosil qilinishida oʻxshatish etalonlari muhim ahamiyatga ega. Etalonlar milliy dunyoqarashni aks ettiradi, chunki ular dunyodagi hodisalarning oʻz milliy-odatiy oʻlchovi natijasidir. “Etalon ijtimoiy-psixologik miqyosda jamiyat tabiat hodisalari, inson haqidagi meʼyoriy tasavvurlar koʻrinishida aks etadi”[1,21]. Ular orqali shaxs, narsa-buyum, hodisalar, obyektlarning xususiyatlarini va sifatini oʻlchash yoki tasavvur qilish mumkin. Shu xususiyati bilan bilinmagan yoki bilinishi qiyin boʻlgan oʻrinlarda etalonlar juda ham katta ahamiyatli sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Professor M.Yoʻldoshevning oʻxshatish etaloni haqidagi fikri ham asoslili bilan eʼtiborga loyiq: “Har qanday oʻxshatishning lingvopoetik asosini bevosita oʻxshatish etaloni tashkil etadi. Tasviriy vosita sifatidagi oʻxshatishning poetik qimmatini, estetik salmogʻini ham xuddi shu oʻxshatish etaloni belgilaydi. Oʻxshatishning originalligi ayni oʻxshatish etaloning originalligiga koʻra yuzaga keladi”[2, 58].

Tadqiqotchilarning koʻrsatishlaricha, har qanday oʻxshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, toʻrt unsur (uzv) koʻzda tutiladi, yaʼni, 1) oʻxshatish subyekti, 2) oʻxshatish etaloni, 3) oʻxshatish asosi, 4) oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi. Yozuvchi qissalarini oʻrganish davomida oʻlchov birliklari semali bir qator rang-barang oʻxshatishlarga duch kelindi. Yozuvchi bu kabi oʻxshatishlarni shunday mahorat bilan qoʻllaganki, arziyas va eng kichik boʻlib koʻringan detallarni ham oʻxshatishlar yordamida oʻquvchiga aniq va konkret tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Adibning har bir qoʻllagan oʻxshatishi oʻquvchini oʻylashga, tasavvur qilishga undaydi. Bu esa, oʻz oʻrnida, asarning oʻqishlilikini va oʻqiguvchilarining salmogʻining ham oshishiga xizmat qiladi. Adib qalamiga mansub boʻlgan ”Shaytanat”, “Devona”, “Ov”, “Ozod inson haqida qoʻshiq”, “Falak”, “Eng kichik jinoyat”, “Charxpalak”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Savohil”, “Soʻnggi oʻq”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Alvido, bolalik...” kabi bir qator qissalarida bunday oʻxshatishlarni koʻplab uchratish mumkin.

Turgʻun oʻxshatishlar tarkibida etalonlardan foydalanish barcha tillarga xos. Badiiy asarlarda turgʻun oʻxshatishlarni va ular tarkibida anʼanaviy etalonlarni qoʻllash sermahsul. Biroq ijodkorlar oʻziga xos yangidan yangi oʻxshatishlardan ham samarali foydalanib, original ijod namunalari yaratmoqdalar. Tohir Malik ham asarlarida shaxs, predmet, hayvon, osmon jismlari, harakat va holatni ifodalovchi nomlar bilan bogʻliq oʻxshatish etalonlarini oʻrinli qoʻllaydi. Ular orasida qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda shaxs semali oʻxshatishlar alohida oʻrin turadi. Masalan, *jinniday, odamdek, kasaldek, mahbusdek, oʻgʻridek, boladek* kabi.

Oʻxshatishlar tarkibidagi toʻrt unurning eng asosiysi etalondir. Etalon oʻxshatilayotgan ikki predmet oʻrtasidagi oʻxshashlik aloqasini oʻrnata oluvchi, oʻxshatish hodisasidagi goʻzallikni taʼminlaydigan asosiy vositadir. U orqali xalqning milliy obrazli tafakkurini, xalq tasavvuridagi olamning lisoniy manzarasini oson anglash mumkin.

Masalan, *otdek (sog'lom) bo'lmoq* o'xshatishida aks etgan *otdek* etalonida o'zbek xalqining otni yaqindan bilishi, uni parvarishlashi va xususiyatlarini yaxshi tushunishi ifodalanmoqda. Boshqa hayvonlarni ham etalon qilish mumkin, ammo bu o'xshatish orqali yugurish, chopish sog'lom odamga xos, sanalgan harakatlarni otgina oson bajara oladi. Kenguru, yo'lbars kabi hayvonlar ham tez yugurishi mumkin, lekin o'zbek xalqi u hayvonlar haqida otni bilganchalik keng bilimga ega emas. O'xshatishlarning nutqni bezovchi vositalar sirasiga kirishida etalonning roli alohida ahamiyatga ega. O'xshatilayotgan predmetdan ko'ra uni ochib berishga tanlangan etalonning xususiyatlari alohida ko'zga tashlanib turadi. Etalon haqida so'z ketganda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'xshatishning ohorliligi, u orqali o'xshatilayotgan predmet (subyekt)ni tasavvur qilish, o'rni kelganda, o'xshatishning turg'unlashishi, tinglovchi yoki o'quvchiga zavq bag'ishlay olishi kabi asosiy holatlarning barchasini etalon ta'minlaydi. Shunday ekan, o'xshatishlar tarkibidagi etalonni *o'xshatish yadrosi* deyish ham mumkin. Yadro so'zi bir qator fanlarda termin holida foydalaniladi. Jumladan, botanika fanida yadro hujayraning markazini tashkil etuvchi eng muhim qism sifatida aks etadi[3,13].

Undan tashqari, kuzatishlar davomida shunga amin bo'lindiki, ma'lum bir xalq uchun yaqindan tanish bo'lgan, hamma xususiyatlari ayon bo'lgan predmet, shaxs yoki voqea-hodisa etalon sifatida xizmat qila oladi. Jumladan, o'zbek xalqida *zebradek yuvosh* o'xshatishi uchramaydi, sababi o'zbek xalqi uchun zebra degan hayvon (haqiqatan, yuvosh bo'lsa ham)ning xususiyatlari ma'lum emas. Etalonning vazifasi biror holat yoki predmetni tinglovchiga oson anglatishdir. Agar notanish narsa etalon sifatida qo'llansa, nutqni tushunish ancha qiyinlashadi.

Etalonlar shunchaki tanlanmaydi. Etalonga olinayotgan predmet, shaxs, voqea-hodisalarning etalon bo'lishga loyiq xususiyatlari o'zining turdoshlaridan ancha ustun bo'lishi kerak. Masalan, gulni etalon qilish uchun undagi go'zallik asos qilib olinadi, chunki undagi go'zallik boshqa o'simliklardagidan ustun, asalni etalon qilish uchun uning shirin ta'mi asos qilib olinadi, chunki shakar va novvotdagi shirin ta'm asalniki kam.

Tahlilga jalb etilgan asar matnini kuzatish jarayonida adib tomonidan qo'llangan shaxs semali o'xshatishlar (*telba, boshliq, bemor*) e'tiborimizni tortdi. Yuqoridagi mulohazalarimizni shu misollar orqali mustahkamlamoqchimiz: "*U bir necha daqiqa telbalarcha turdi*" (Shaytanat, 1-kitob, 3-bet). Bu o'rinda Elchin o'ldirilgan xotining ayanchli holatini ko'rgach, vaqtincha aqldan ozib, telbalarga o'xshab qolganligi *telba* etalonini qo'llash uchun asos qilib olingan bo'lsa, yana bir o'rinda *jinni* etaloni qo'llanadi: "*Birinchi tunni xuddi jinniday alahsirab o'tkazdi*" (Shaytanat, 1-kitob, 18-bet). Yozuvchining mahorati shundaki, bir leksemaning turli sinonimlaridan ham o'rinni foydalana olgan.

*Lozim bo'lganda katta idoralarga boshqa bir idora boshlig'iday bemalol kirib chiqaverardi* (Shaytanat, 1-kitob, 50-bet). Rahbar odam imkoniyatlarining ko'pligi asos qilib olingan.

*Kap-katta erkak odamning so‘yishga mahkum etilgan buqaday o‘kirishi, so‘ng tul xotinday piqillab yig‘lashi, keyin omonatini topshirishga qasd qilgan, so‘nggi nafasleri bilan ihranayotgan bemor kabi ovoz chiqarishi faqat Sharifga atalganday edi* (Shaytanat, 1-kitob, 61-bet). Bu o‘xshatish uchun tul xotinning ham, bemorning ham o‘jizligi va zaifligi asos qilib olingan.

*“Aybiga iqror bo‘lgan gunohkorday boshini egdi”* (Shaytanat, 1-kitob, 68-bet). Bu o‘rinda esa gunohkorning hammaga oshkor bo‘lgan holatidan uyalishi asos qilib olingan.

*“Hovlisiga bezgakka uchragan odamday titrab-qaqshab kirib keldi”* (Shaytanat, 1-kitob, 86-bet). Bu vaziyatga bezgakka uchragan odamning titrashi asos qilib olingan.

*“U esa mehribon enagaday tirjayib, joyida qolaverardi”* (Shaytanat, 1-kitob, 184-bet). Enaganing tabassumda bo‘lishi asos qilib olingan.

*“Tarix fani fohishaga o‘xshab o‘zgarib turadi, bilasiz-ku?”* (Shaytanat, 1-kitob, 192-bet). O‘zgaruvchanligi asos qilib olingan.

*“U arzimagan bir odamning maktubini olayotgan podshoday qaddini g‘oz tutib, torga qo‘l uzatdi”* (Shaytanat, 1-kitob, 176-bet). Kibr-havosi asos qilib olingan.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, shaxs semali o‘xshatishlarning o‘zi ham talaygina. Ularning hammasi ham individual o‘xshatishlar tarkibida qo‘llangan.

Adib qissalarida *bola* etaloni orqali qahramonlarning xarakteri va xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab rang-barang o‘xshatishlar ham uchraydi. Umuman, o‘zbek xalqi bolajon xalq, bolasi uchun ishlaydi va bolasi uchun yashaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi serfarzand xalq bo‘lib, *“O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa, qilig‘i boshqa”*, *“Olti o‘g‘illining olti Arshda moli bor”*, *“Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor”*, *“Ona bilan bola – gul bilan lola”*, *“Bola bor uyda g‘iybat yo‘q”* (O‘XM) kabi bola aks etgan maqollari juda ham ko‘p. O‘zbek xalqi bola bilan bog‘liq o‘xshatishlarni shunday qo‘llaydiki, unga xos eng kichik detallarni ham ko‘zdan qochirmaydi.

*“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”*[4, 44-47]da *bola* etalonining *ishonuvchan, beg‘ubor, beozor, sodda, injiq; aldanmoq, jo‘n fikrlamoq; hurkmoq, uyalmoq, tortinmoq, javdiramoq; sho‘xlik qilmoq, erkalik qilmoq; sevinmoq, quvonmoq; tutolmasdan, tortinmasdan, baland ovoz bilan yig‘lamoq, ovutmoq, aldamoq, suymoq, yupatmoq, mehribonlik qilmoq* kabi semalari misollar orqali izohlangan. “Shaytanat” qissasida ham bu etalonning yuqoridagi semalarini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

*“Meni laqillatmoqchimisiz?”*

– *Savollaringizga to‘g‘ri javob beryapman-ku?*

– *Qoradorining kilosi ming so‘m ekanmi? Qaysi ahmoq ishonadi bu gapga? Siz ilmdan boshqa narsalarga ham hech aralashganmisiz?*

Namozov *“ilm”* degan so‘zni eshitib, **xuddi “daftarim uyda qolibdi”, deb yolg‘on gapirib qo‘yib uyalgan boladek boshini egdi.**

– *Yolg‘onni eplagan odam gapirishi kerak, — dedi Zohid achchiqlanib”* (Shaytanat, 1-kitob, 30-bet). Bu o‘xshatish tuhmat bilan qamalgan vino zavodining direktori Sharif

Namozovning holatiga nisbatan qoʻllangan. Oʻxshatishda nega aynan *“daftarim uyda qolibdi” deb yolgʻon gapirib uyalgan bola*”ga oʻxshatilayotganiga eʼtibor qarataylik. Odatda, oʻquvchi uy vazifasini bajarmagan boʻlsa, *“daftarim uyda qolibdi”* deb yolgʻon gapiradi. Oʻqituvchining bu gapga ishonmasligi hammaga maʼlum, vazifa tayyorlagan oʻquvchi hech qachon daftarini tashlab kelmaydi. Ana endi Sharif Namozovning bu oʻxshatishga sabab boʻlgan ahvoliga bir nazar tashlasak, tergovchi Sharifning qoradori savdosi bilan qamaliganligi tuhmatligini biladi, ammo Sharif uni tuhmatligini isbotlashga koʻzi yetmay taqdirga tan beradi. Tergovchi Sharifning qamalishini istamaydi, shunday boʻlsa ham baʼzi savollar bilan uni sinamoqchi boʻladi:

*“— Mijozlaringizni ayting?*

*— Tanimayman.*

*— Qanchadan olib, qanchadan pullardingiz?*

*— Kilosinimi?*

*— Aytaylik, kilosini?*

*Namozov oʻyladi. Oʻzicha chamaladi.*

*— Ming soʻmdan olib, bir yarim mingdan sotardim.*

*— Demak, kilosidan besh yuzdan qolarkan-da?*

*— Ha, shunaqa.*

*— Koʻpdan beri sotarmidingiz?*

*— Koʻpdan... uch-toʻrt yil boʻldi.*

*— Pulni nima qilardingiz?*

*— Pulnimi? Yeb-ichib...*

*— Meni laqillatmoqchimisiz?*

*— Savollaringizga toʻgʻri javob beryapman-ku?*

*— Qoradorining kilosi ming soʻm ekanmi? Qaysi ahmoq ishonadi bu gapga? Siz ilmdan boshqa narsalarga ham hech aralashganmisiz?”* (Shaytanat, 1-kitob, 31-bet).

Yuqoridagi suhbatni koʻrib turganingizdek, Sharifning aldayotgani oyday ravshan. Shuning uchun ham bu oʻrinda Sharifga nisbatan aynan alday olmay uyalib qolgan bola oʻxshatishi qoʻllangan. *“Oʻrinbosarning Yaratgandan undirgan eng ulugʻ neʼmati — koʻzlari. Bunaqa muloyim boquvchi, uzun kipriklar bilan himoyalangan koʻz qizlarda ham kam uchraydi. Oʻrinbosar Zohidning xonasiga kirdi-yu darsga kech qolgan boladay boshini egib, yer ostidan qarab qoʻydi”* (Shaytanat, 1-kitob, 153-bet).

*“Mahmud, — dedi Asadbek, — Haydar akang bu yerga yetib kelsin. Sen oʻzing Elchinning uyiga borib tur, qabristonga odam yubor. Bolani koʻmish kerak.*

*Shunday dedi-yu, goʻshakni joyiga qoʻydi — ortiqcha gap-soʻzga hojat yoʻq edi. Tabibboshi darsga kech qolgan boladay eshikni asta ochib, qaradi”* (Shaytanat, 2-kitob, 58-bet). Har ikkala oʻxshatish ham bir xil, ammo har xil semalarni ifodalashi bilan farqlanmoqda. Birinchi oʻxshatish orqali qahramonning qoʻrquvi ifodalangan. Oʻqituvchidan keyin sinfxonasiga kirayotgan oʻquvchi ustozidan gap eshitishini oʻylab

qo'rqadi. Xuddi shunday holat birinchi misoldagi qahramonning ahvolidagi ifodalangan. U kelganda prokuror xonaga allaqachon kelib bo'lgandi. Ikkinchi o'xshatish orqali esa yozuvchi qahramonning darsga kech qolgan bola orqali qo'rquvni emas, darsda izza bo'lib uyalishini aks ettirgan. Bu misoldagi qahramonning yuzida qo'rquv ifodalanmagan. Yozuvchi *darsga kech qolgan boladay* konstruksiyasidan juda o'rinli foydalangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tohir Malik asarlaridagi o'xshatishlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, adib juda ko'p o'rinlarda bir predmetni turli sema uchun yoki bir sema uchun turli predmetni etalon sifatida tanlaydi. Shu bilan birga etalon tanlashda aniqlikka alohida e'tibor qaratadi. Yuqorida tahlilga tortilgan bola etalonli o'xshatishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda bolaning qaysi xususiyatlari nazarda tutilayotganligi alohida ko'zga tashlanadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, har qanday badiiy asar o'z tarkibidagi o'xshatishlar bilan bayon qilinayotgan fikrning turli ma'no nozikliklarini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Badiiy matnda o'xshatishlarning alohida o'rni bo'lib, ularsiz har qanday matn jo'n va odatdagi ifodalardan iborat sintaktik birlikka aylanib qoladi va matnning badiiyligiga putur yetishi mumkin. Yuqorida turli misollar yordamida o'xshatishlarning badiiy asardagi mavqeyi qay darajada ekanligini dalillashga harakat qildik. Qiyoslash jarayonida o'xshatish qo'llangan va qo'llanmagan o'rinlardagi farq sezilarli darajada ko'zga tashlanganiga guvoh bo'lindi. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, o'xshatishlar badiiy asardagi badiiylilik bo'yog'ini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan xususiyatlanadi.

O'xshatishlar nafaqat badiiy bo'yoqni aks ettirishda, balki muayyan til iste'molchilarining xarakter-xususiyatlarini, mentalitetini, boshqa xalqda ko'rilmaydigan tomonlarini, milliylikini, bir so'z bilan aytganda, xalq shaxsiyatini namoyon qila oladigan unsurlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham o'xshatishlar har qanday xalqlar adabiyotida uchrasa ham o'zga xalq vakillari uchun tushunarsiz holatni yuzaga keltirishi mumkin. Bu hol har bir xalqning olamni lisoniy manzarasi turli ko'rinishda ekanligidan darak beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – В. 21.
2. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 58.
3. Biologiya. Darslik. 6-sinf. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – В. 13.
4. Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – В. 45-47.